



THE PLACE OF DESIGN IN WORLD STYLES

Rakhimova Kamola Gayratovna

rakhimovakamola96@gmail.com

Boltayeva Iqbol Bakhrom qizi

iqboloyboltayeva200@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17152422>

ARTICLE INFO

Received: 10th September 2025

Accepted: 17th September 2025

Online: 18th September 2025

KEYWORDS

What is design, methods, Ancient, Egypt, Heuristics, association, analogy, method, caricature method, game.

ABSTRACT

This article briefly covers the history of design and the methods and techniques used today. These methods and techniques attract people with their beauty and expand their thinking about art and design. The article briefly covers the history of the information and represents the unique art of each era.

МЕСТО ДИЗАЙНА В МИРОВЫХ СТИЛЯХ

Рахимова Камола Гайратовна

rakhimovakamola96@gmail.com

Болтаева Икбол Бахром кизи

iqboloyboltayeva200@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17152422>

ARTICLE INFO

Received: 10th September 2025

Accepted: 17th September 2025

Online: 18th September 2025

KEYWORDS

Что такое дизайн, методы, Древний Египет, эвристика, ассоциация, аналогия, метод, метод карикатуры, игра.

ABSTRACT

В данной статье кратко рассматривается история дизайна, а также методы и приёмы, используемые сегодня. Эти методы и приёмы привлекают людей своей красотой и расширяют их представления об искусстве и дизайне. В статье кратко рассматривается история дизайна и представлены уникальные особенности искусства каждой эпохи.

DIZAYNNING DUNYO USLUBLARIDAGI O'RN

Raximova Kamola G'ayratovna

raximovakamola96@gmail.com

Boltayeva Iqbol Baxrom qizi

iqboloyboltayeva200@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17152422>

ARTICLE INFO

Received: 10th September 2025

Accepted: 17th September 2025

Online: 18th September 2025

KEYWORDS

ABSTRACT

Ushbu maqola orqali dizayn yo'nalishi uning tarixi va bugungi kundagi usul va uslublari qisqacha yoritilgan. Bu usul va uslublari kishini go'zalligi bilan o'ziga



Dizayn nima, usullari, Qadimgi, Misr, Evristika, assotsiatsiya, analogiya, usuli, karrikatura usuli, o'yin.

chorlaydi va Kishida san'at va dizayn sohasiga bo'lgan tafakkurni kengaytiradi. Maqolada ma'lumotlar qisqacha tarixi yoritilgan bo'lib, har bir davrning o'zgacha san'atini ifodalaydi.

O'zbekiston tarixida har bir davrning o'zida yangi rivojlanish va har bir davrning alohida o'рни beqiyosdir. Sohalar ichida dizaynni rivojlantirish va sanoat dizayni jadal rivojlanmoqda.

Dizayn atamaları lug'atida - dizayn|| inglizcha so'z bo'lib, - loyiha, -obraz, -fikir, - g'oya, - g'ayrioddiy faoliyat, - reja, - maqsad, - mo'ljal, - ijodiy ko'zlama, - chizma, - hisob-kitob, - konstruksiya, - eskiz, - rasm, - naqsh, - kompozitsiya san'ati, - san'at asari kabi ma'nolarni anglatadi. Dizayn – bu bir qator maxsus loyihalash faoliyati bo'lib, badiiy buyumlar ijodkorligi va ilmiy asoslangan muhandislik amaliyotini sanoat ishlabchiqarishi tizimida birlashishi.

Dizayn XX-asr boshlarida yuzaga kelib, 1930-yillarda maxsus faoliyat turi sifatida G'arbiy Yevropa va AQShda shakllandi. 1980-yil 2-yarmidan dizaynning faoliyat doirasi kengaydi. Dizaynerlar rassom sezgisi bilan birga ilmiy fanlar (masalan, materialshunoslik, rangshunoslik va boshqa)ga tayanadi, ishlab chiqarish jarayoni va sharoitlari, sotsiologiya va boshqa bilimlarga ega bo'lishi lozim. Dizayn sohasidagi mutaxassislar maxsus oliy o'quv yurtlarida tayyorlanadi.

Dizayn tafakkuri bu ko'nikmalar to'plamiga asoslangan muammolarni hal qilishning innovatsion jarayoni. Ushbu yondashuv bir necha o'n yillar davomida mavjud bo'lib, lekin u faqatgina 2008 yilgi Garvard Business Review jurnalining IDEO dizayn kompaniyasi rahbari va prezidenti Tim Braunning "Dizayn tafakkuri" nomli maqolasidan so'ng dizaynerlik jamiyatidan tashqarida o'z kuchini topa boshladi.

Sanoat inqilobi tufayli dunyoga kelgan dizayn yashin tezligida Jeyms Uattning bug' mashinalari, Reymond Louining lokomotivlari, Peter Berens va Diter Ramsning elektron buyumlari, Marchello Natsioli va Etor Sottsassning yozuv mashinkalari, aka-uka Raytlarning uchish moslamalari, Skorskiy vertalyotlari, Stenli Kubrik va Verner Pantoning kosmik fantaziyalari bilan hayotimizga kirib keldi.

XX asrni haqli ravishda - dizayn asri|| deb atash mumkin. Uning yuz yillik tarixida - ilohiy buyuk asarlar dunyoga keldiki, ularni Evropada – “dizayn ikonasi” deb atashadi. Ular dizayn taraqqiyoti shajarasini (bosqichlarini) aks ettiradi. Bugungi kunlarda ularga bag'ishlab maxsus muzey va ko'rgazma zallari bunyod etilmoqda. Dunyoda nom taratgan Le Karbyuze, Marsel Broyer, Charlz Makintosh va Gerrit Ritveld mebellari, Jezef Xoufman, Karl Pott hamda Arne Yakobson idish-tovoqlari, bu buyumlar hozirgacha ishlab chiqarilmoqda hamda ofis va boshqa salonlar interyerlarining eng nafis va zarur



bezaklaridir. Endilikda dizayn tarixi ham san'at va arxitektura tarixi kabi butun bir fanga aylanib ulgurdi.

Dizayn obyektlari. Har qanday narsa yoki buyum, narsalar majmui, ularni o'rab turgan predmetlar makoniy muhiti, dizayn sohasidagi xizmatlar, dizayn ob'ektidir. XXI asrning boshlarida insonni o'rab turgan barcha yashash sharoitlari, muhiti va usuli sanoat dizaynining ob'ekti sanaladi. Ammo tarixiy jarayon bosqichlarida asosan buyum dizayn ob'ekti sifatida yuzaga chiqqan.

Dizaynning maqsadi. Ma'lum bir hududning madaniyati va har bir davrning o'ziga xos axloqiy-estetik qadriyatlari talablaridan kelib chiqqan holda insonni o'rab turgan moddiy olamni insoniylashtirishdan iborat. Dizayn metodlari. Arxitektura sohasida ishlab chiqilgan kompozitsiya metodlariga ancha yaqin, ammo tadqiqotchilikda evristik, ya'ni tez kashf etish usullarini qo'llaydi, undan tashqari, turli badiiy ijodkorlikda qo'llaniladigan hamda ilmiy faoliyatga tatbiq etilgan usul va metodlardan foydalaniladi.

Dizaynerlik faoliyatining biron-bir sohaga (mutaxassisligi bo'yicha olingan bilimlarga ko'ra) mutaxassislashish natijasida yuzaga kelgan maxsus shakllarning loyihalash predmetlari, maqsadlari, metodlari, loyiha ishi va uning natijalariga qarab, ular bir-biridan farq qiladi. Ana shu farqlanishni - dizayn turlari|| deb yuritiladi. Dizaynning turlarga bo'linishi kasbiy faoliyatning qanchalar professional va samarali tashkil etilishi hamda maxsus ta'limning qanchalar sifatli ekanligiga bog'liq. Dizayning biz yuqorida tilga olgan turlarini bir-biridan ajratish mumkin: sanoat, grafik, muhit, veb va jarayonlar dizayni. Sanoat dizaynida maishiy buyum va anjomlar, mashinasozlik ob'ektlari, transport vositalari, liboslar va boshqalar.

Dizaynning yangi turlari ham vujudga kelmoqda. Ular alohida tarmoqlarning o'ziga xos xususiyatlari, manfaatlariga mos loyihalash (ekologik dizayn, jarayonlar dizayni, ergo-dizayn, futurologik dizayn, lanshaft, ekspozitsiya, injenerlik dizayni va boshqalar) maqsad va natijalariga ko'ra nomlangan dizayn (art-dizayn, shrift, lendart, arxitektura dizayni, kompyuter dizayni va boshqalar).

Sanoat dizayni ishlanmalarining bosqichlari: g'oyaning tug'ilishi; konseptual ishlama; eskizlashtirish; 3D – plastelinda prototipi, ya'ni shaklini yaratib, suratini olish, uch o'lchamli modellashtirish, mahsulot nusxasini tayyorlash, konstruksiyalash, texnologik jarayonlarni tanlash, muhandislik tahlili va optimizatsiya, amalga oshirish. Dizaynning bu faoliyat turi o'z ichiga san'at unsurlarini, marketing va texnologiyalarni ham qamrab oladi. U uy-ro'zg'or buyumlaridan tortib, murakkab texnologik ilm-fan izlanishlarini ham talab qiladi.

Dizaynda uslub (stil) Predmetli makon muhiti va uning unsurlarini go'zallik bilan uyg'unligi, inson tasavvur jarayonida moddiy va badiiy madaniyatning bir butunlik sifatida namoyon bo'lishi - uslub deb yuritiladi.

Uslubning harakterli belgisi uning deyarli o'zgarmasligidir. Dizayn uchun eng muhim narsa ma'lum bir davrda jamiyatning estetik me'yorlari bilan mustahkam bog'liq ekanligidir. Dizayndagi uslubiy echim ko'pincha konseptual xususiyat kasb etadi va ijodiy yo'nalishini belgilab beradi (misol uchun, - xay-tek, - retro, - memfis va boshqalar).



Agar uslubni biron-bir muallif, rassom, dizayner uchun qo'llasak (yoki mualliflar guruhi, firma va boshqalar), uslub mana shu rassom-muallifni (yoki guruhni) tavsiflaydi. Uning tasvirlash yo'li va ijodiy uslubini aks ettiradi.

Dizaynda har bir uslubning o'z o'rnini va mavqei bor. Har biri betakror bu uslublar haligacha to'liq o'rganib chiqilmagan. Fan va texnika taraqqiyotida hali o'rganilayotgan va o'rganilmagan qanchadan-qancha moddiy va ma'naviy butun jahon merosi bor.

Jumladan: *Qadimgi Misr uslubi*. Qadimgi Misrda saroylar va turar joy binolarini assimetrik tarzda rejalashtirganlar. Saroy zallarining devorlari bo'rtma naqshlar va sirli koshinlar bilan bezatilgan. Devorlar, peshtoqlar, gumbazlar, ustunlar iorog'liglar yozuvlari, dafn marosimlari rasmlari bilan to'ldirib tashlangan. Binolar qurilishida ishlatiladigan ustunlarni uch xil shaklda bezaganlar. Ustunlarning ustki qismi nilufar guli yoki g'unchasi shaklida, papirus daraxtining bo'g'imlariga o'xshagan holda, Gator tasvirida, ya'ni Gator budi (xudosi) boshi shaklida (it boshli ayol qiyofasida) bo'lgan.

Antik davrda Yunoniston, Rim va Vizantiya interyerlari. Antik uslub deganda, qadimgi Yunoniston va Rim me'morchiligini anglash mumkin. Qadimgi yunonlar me'morchilikda ustunli binolar qurishni misrliklardan o'rgangan bo'lishsada, bu usulni kayta ishlab, uchta uslub yaratganlar: doriy, ioniy, korinf uslublari. Ular ibodatxona, teatr, saroy va majlis binolariga aloxdia e'tibor berganlar. Keyinchalik marmar toshlardan erkak kishining gavdasiga o'xshash ustundan, ba'zi ustunlar nozik, yukori kismi gajakqayrilma, naqshli uslubdagi binolar qurilib, ayol gavdasiga qiyoslangan.

Roman uslubi (XI-XII asrlar) Dastlabki eng katta tarixiy uslublardan biri, Evropa badiiy madaniyati rivojlanish bosqichlarini belgilab bergan roman uslubi X-XIII asrlarda hukmronlik qildi. Bu o'rta asrlar san'ati uslubi, yangi feodal munosabatlari tufayli yuzaga keldi hamda antik san'atning davomi, aytish joiz bo'lsa, unga butunlay qarama-qarshi oqim sifatida namoyon bo'ldi.

Gotika – O'rta asrlar Evropa uslubi Gotika uslubi me'morchilikka oid bo'lib, Fransiya dunyoga kelgan. U o'zining o'ta nafisligi bilan ajralib turuvchi uslub hisoblanadi. Bu uslubda qancha rang, qanday materiallar qo'llanilgani eng muhimi emas, muhimi uylarni jihozlashda bir butunlikka erishilganligidir. Ko'hna buyumlarning zamonaviy narsalar bilan uyg'unlashtirilganligi gotikaga xos xususiyatlardan yana biridir.

Renessans - Uyg'onish davri uslubi (XV-XVI asrlar) (Fransuzcha-renaissance, italyancha -rinascimento, -ri - qayta yoki qayta tug'ilmoq). Evropa madaniyati tarixidagi davr, O'rta asrlar madaniyati o'rniga kelgan yangi davr. U taxminan XIV asr boshlaridan XVI asr oxirlari va XVII asrning dastlabki o'n yilliklarini o'z ichiga oladi. Uyg'onish davri madaniyati o'zining antropotsentrizm (birinchi navbatda, asosiy e'tibor inson va uning faoliyatiga qaratilganligi) xususiyati bilan insoniyat tamaddunidan joy olgan.

Barokko (serhasham) uslubi. Bu uslubni Fransiya Lyudovik XIV qirolligi davri bilan bog'lashadi. Aslida esa barokko estetikasi tarmoqlari uyg'onish davrining oxirlaridan boshlangan.

Rokoko – san'at uslubi. U interyer dizaynida eng ko'p qo'llaniladi. Fransiya Fillip Orleanskiy (1715-1729 yillar) va Lyudovik XIV hukmronlik qilgan zamonlarda gullab-yashnadi. Rokoko borokkoning davomi sanaladi, ammo shakllarning o'ta hashamdorligi va dabdabavozligidan voz kechadi.



Klassitsizm uslubi. Zamonlar o'taveradi, hashamdor barokko o'z zebu ziynatlari bilan, g'alati rokoko esa o'z fasohati bilan jamiyatni zeriktiradi. Taqinchoq va bezaklardan charchagan zamon endi oddiy va kamtarin ko'rinishni istab qoladi. Ularning o'rini yangi uslub – klassitsizm egallaydi. U Evropada XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'z hukmronligini o'rnatadi.

Xulosa: Dizayner-ijodkorlari ichida barcha davrlarda ham noyob qobiliyat egalari mavjud bo'lgan. Har bir ijodkor avvalo o'zining g'oyasini ilgari surgan va ma'lum bir usulning asoschisiga aylangan. Bu usullar esa eng zamonaviy usullar bo'lib bugungi kunning yoshlarbop usullari hisoblanadi. Evristika, assotsiatsiya usuli, analogiya usuli, bionika usuli, karrikatura usuli, boshqalarni fikrini aniqlash, neologiya usuli, dekompozitsiya va ketma-ket yaqinlashish prinsip usuli, yordamchi vazifa usuli, kamchiliklar ro'yhati, yordamchi savollar usuli, antropotexnika usuli, empatiya usuli, ilg'or texnologiyalar usuli, aql hujumi usuli, o'yin usullari.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi: yoshlar va zamonaviy taraqqiyot" Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot (2023). (Yoshlar siyosati va ijtimoiy rivojlanish haqida rasmiy manba.)
2. Erikson, E. H. (1968). Identity: Youth and Crisis. New York: W. W. Norton & Company.
3. Kaiser, S. B. (2012). The Social Psychology of Clothing: Symbolic Appearances in Context. New York: Fairchild Books. (Moda va ijtimoiy psixologiya haqidagi ilmiy ish.)
4. Fashion Revolution (2023). Fashion Transparency Index. (Barqaror moda va ekologik masalalar bo'yicha hisobot.)
5. Entwistle, J. (2000). The Fashioned Body: Fashion, Dress and Modern Social Theory. Polity Press. (Moda va ijtimoiy nazariyalar.)
6. Abidin, C. (2016). "Visibility Labour: Engaging with Influencers' Fashion on Instagram." Media International Australia, 161(1), 86-100. (Ijtimoiy tarmoqlardagi influencerlarning modaga ta'siri.)
7. Wilson, E. (2003). Adorned in Dreams: Fashion and Modernity. I.B. Tauris. (Moda va zamonaviylik.)
8. Raximova Kamola G'ayratovna Baynazarova Lobar Xamdam qizi Boltayeva Marjona Talib kizi "Ijodiy manbadan foydalanib kostyum dizayni loyihasini yaratish texnologiyasi" EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH UIF = 8.1 | SJIF = 7.899 Volume 4, Issue 6, June 2024 ISSN 2181-2020 Page 101-108 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11545303>
9. FABRIC, PATTERN AND FINE ART EMBROIDERY Boltayeva Iqbol Baxrom qizi EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE <https://doi.org/10.5281/zenodo.13999942>